

## TIL TARAQQIYOTIDAGI SEMANTIK O'ZGARISHLAR

**Baxtiyorova Karomatbonu Doniyor qizi**

*Buxoro davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi*

[baxtiyorovakaromatbonu968@gmail.com](mailto:baxtiyorovakaromatbonu968@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisda til taraqqiyoti jarayonida yuz beradigan semantik o'zgarishlar tahlil qilinadi. Xususan, lug'at tarkibidagi so'zlarning ma'nosi vaqt o'tishi bilan kengayishi, torayishi yoki boshqa ma'noga ko'chishi kabi hodisalar yoritiladi. Shuningdek, ma'no ko'chishining metonimiya va sinekdoxa kabi turlari haqida ham fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *til taraqqiyoti, semantik o'zgarishlar, leksika, so'z, ma'no kengayishi, ma'no torayishi, ma'no ko'chishi, metonimiya, sinekdoxa.*

**Аннотация:** *В данном тезисе рассматриваются семантические изменения, происходящие в процессе развития языка. В частности, анализируются такие явления, как расширение, сужение и перенос значения слов в составе лексики. Также уделяется внимание видам переноса значения, таким как метонимия и синекдоха.*

**Ключевые слова:** *развитие языка, семантические изменения, лексика, слово, расширение значения, сужение значения, перенос значения, метонимия, синекдоха.*

**Abstract:** *This thesis examines semantic changes that occur during the development of a language. In particular, it analyzes the processes in which the meanings of words in the vocabulary expand, narrow, or shift to other meanings over time. The study also discusses types of semantic transfer such as metonymy and synecdoche.*

**Keywords:** *language development, semantic changes, lexicon, word, meaning expansion, meaning narrowing, semantic shift, metonymy, synecdoche.*

Milliy taraqqiyot milliy til mavqeyi va nufuzi yuksalishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Til taraqqiyotining rivojida semantik o'zgarishlar muhim rol o'ynaydi. Bu hodisa ijtimoiy - madaniy rivojlanish, fan-texnika taraqqiyoti va nutqiy ehtiyoj ta'sirida yuz berib, tilning ifoda imkoniyatlarini oshiradi. Ushbu so'z yunoncha "semantikos" - ma'no bildiruvchi, ifodalovchi degan ma'nolarni bildiradi. Semantik taraqqiyot deganda, tildagi mavjud lug'aviy birliklarning ma'no nuqtai nazardan rivoji nazarda tutiladi. Bunday eng asosiy narsa lug'aviy birliklar ma'nosining kengayishidir. Dunyodagi jamiki narsa borliq va shu kabilar o'z ma'no va tushunchasiga, shu bilan birga, ular biror bir so'z bilan ifodalanuvchi o'z nomiga ham ega.

Semantik taraqqiyot ham tilning tabiatidan kelib chiqadigan qonuniy hodisa, ya'ni, bu hodisa tilning ixchamlikka, soddalikka intilish kabi xususiyatlari bilan bog'liq. Semantik o'zgarishlar tilning lug'at boyligini yangi so'zlar yasamasdan turib boyitishning asosiy manbayidir. Semantik o'zgarishlarning asosiy turlari:

1. Ma'no kengayishi
2. Ma'no torayishi.
3. Ma'noning yaxshilanishi va yomonlashishi.
4. Metafora.
5. Metonomiya.
6. Sinekdoxa.

**Ma'no kengayishi-** so'zning dastlabki ma'nosi umumlashadi va ko'proq tushunchalarini qamrab oladi.

Masalan: "oyoq" so'zi dastlab inson tani asosi sifatida qo'llangan keyinchalik "stol oyog'i" kabi kengroq ma'nolarini olgan.

Non-bug'doydan yopiladigan yegulik, hozirda esa ovqat ma'nosida ishlatiladi.

Domla-oldin diniy ustoz ma'nosini anglatgan, hozirda esa o'qituvchi, muallim ma'nosini beradi.

**Ma'no torayishi** - umumiy tushunchani bildiruvchi so'z muayyan ma'noga asoslanib qoladi. Masalan: "go'sht" qadimda barcha hayvon go'shtini bildirgan bo'lsa, hozirgi kunda ko'proq qoramol go'shtini anglatadi. "Osh"-oldin barcha ovqat ma'nosini bergan, hozirgi kunda esa aynan guruch bilan tayyorlanadik ovqat nazarda tutiladi.

**Ma'noning yaxshilanishi va yomonlashishi-** so'zning ijobiy yoki salbiy konnotatsiyaga ega bo'lishi. Misol uchun: "qahramon" sifati avval harbiy jangchi ma'nosida bo'lsa, keyinchalik ijobiy "jasur inson" ma'nosini olgan.

Metafora- yunoncha "ko'chirish" degan ma'noni bildiradi. Ma'no o'xshashligi asosida bir tushuncha ikkinchi tushunchaga kochiriladi. Metafora nutq va matnni boyitadi. U fikrlarni tushunishni osonlashtiradi.

Masalan: "Hayot-uzun yo'l"

"Vaqt-oltin"

"Orzularim qanot chiqardi"

"Umid-so'nmas yulduz"

Metanomiya- ikki tushuncha ortasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chim.

Metanomiyada biror narsa yoki voqea hodisaning nomi boshqasiga ko'chiriladi, biroq nomlash o'xshashlik asosida emas, yaqinlik va aloqadorlikka asoslanadi.

Masalan: Navoiyni o'qidim, bir chashka iching, butun zal qarsak chaldi, qozon qaynayapti, u butun umrini sahnaga bag'ishladi, butun qishloq to'yga keldi.

Sinekdoxa- butun orqali qism, qism orqali butun ifodalash.

Masalan: "O'n qo'lingni og'zingga solma"

"Mo'ylov majlisga kelmadi".

"Uyda uchta og'iz bor"

"Besh qo'l barobar emas"

"Qo'limni kesdim"

A.A.Potebniya ta'biri bilan aytgandanda: "Til doimiy faoliyat jarayon ekan, unda lisoniy hodisalarning, yangiliklarning, o'zgarishlarning to'xtovsiz ravishda bo'lib turishi tabiiy, mantiqiy holdir. Chunki til egasi bo'lgan jamiyat doim rivojlanishda, o'sishdadir" [1;101].

Xulosa qilib aytganda, semantik o'zgarishlar tilning jonli organizm ekanligini, uning jamiyat bilan birga doimiy rivojlanishda ekanligini ko'rsatuvchi muhim tilshunoslik hodisasidir. Til doimiy o'zgarishga moyil. Agar til o'zgarib, yangilanib bormasa u iste'moldan chiqib boshlaydi va o'lik tilga aylanadi. Lotin, So'g'd, qadimgi xorazm tillari bunga yaqqol dalildir. Bundan tashqari, nutqimizda ma'lum bir tushunchalarni so'z qo'llash qoidalarga rioya qilgan holda ishlatish aniqlikni va tushunarli linki ta'minlaydi. Mashhur faylasuf Rene Dekart ta'kidlaganidek, "Agar siz so'z ma'nolarni aniqlab olsangiz, dunyoni yarim chalkashliklardan xalos qilgan bo'lasiz".

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Ravshanxo'ja Rasulov. Umumiy tilshunoslik. Toshkent.2010.
- 2..Z.Xolmonova .Tilshunoslikka kirish. Toshkent.2022.
- 3.I. Islomov. X. Qodirov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent.2010.

